



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV T'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK
VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
“O'QUVCHI-TALABA KREATIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH
KONTEKSTIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN
FANLARARO SINXRON-ASINXRON FOYDALANISH”**

**РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН
МИНИСТЕРСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ,
НАУКА И ИННОВАЦИЙ
ДЕНАУСКИЙ ИНСТИТУТ
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И ПЕДАГОГИКИ**

**МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ “МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЕ СИНХРОННОЕ И
АСИНХРОННОЕ ИСПОЛЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В КОНТЕКСТЕ РАЗВИТИЯ
КРЕАТИВНОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ И СТУДЕНТОВ”**

**REPUBLIC OF UZBEKISTAN
MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION
DENOU INSTITUTE OF ENTREPRENEURSHIP AND PEDAGOGY**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
“INTERDISCIPLINARY SYNCHRONOUS-ASYNCHRONOUS USE
OF INNOVATIVE EDUCATIONAL
TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE
ACTIVITY OF STUDENTS”**



2023-YIL 29-30-SENTABR

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

**“O‘QUVCHI- FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH
KONTEKSTIDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN
FANLARARO SINXRON-ASINXRON FOYDALANISH”**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

Denov, 2023 yil 29-30 sentyabr

**Сборник материалов международной научно-практической
конференции
“МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЕ СИНХРОННОЕ И АСИНХРОННОЕ
ИСПОЛЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ В КОНТЕКСТЕ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОЙ
АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ И СТУДЕНТОВ”**

Денау, 29-30 сентября 2023 года

Collection materials of the International scientific and practical conference

**“INTERDISCIPLINARY SYNCHRONOUS-ASYNCHRONOUS USE OF
INNOVATIVE GENERAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES
IN THE CONTEXT OF DEVELOPMENT OF STUDENT'S CREATIVE
ACTIVITY”**

Denau, september 29-30, 2023

Toshkent

«Shafoat Nur Fayz», 2023 yil

UO‘K 821.512.133-1

KBK 84(5Ÿ)-5

K 19

2023 yil 29-30 sentyabrda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami.

Konferensiya materiallari [Matn]: to‘plam / Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti.
- Toshkent: «Shafoat Nur Fayz», 2023. – 585 b.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 2-maydagi 118-sonli buyrug‘ining 1-ilovasi asosida tasdiqlangan “2023-yilda Xalqaro va Respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi”ga ko‘ra 2023-yil 29-30-sentabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida o‘tkazilgan “O‘quvchi-talaba kreativ faoliyatini rivojlantirish kontekstida innovatsion ta’lim texnologiyalaridan fanlararo sinxron-asinxron foydalanish” mavzusida Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumaniga kelib tushgan tezislarni matnlaridan tashkil topgan. To‘plamga kiritilgan tezislarning mazmuni, ilmiyligi va dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

Mas’ul muxarrirlar:

Yu.G‘.Maxmudov, pedagogika fanlari doktori, professor;
M.R.Sobirova, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);
Sh.Boymirov, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Taqrizchilar:

E.Y.To‘raev, fizika-matematika fanlari doktori, professor;
H.J.Xudayqulov, pedagogika fanlari doktori, professor;
N.J.Isaqlouva, pedagogika fanlari doktori, professor.

ISBN 978-9910-9942-4-1

Anjuman materiallari to‘plami Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Ilmiy kengashining 2023-yil 27-avgustdagi 1-yig‘ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

SHAXS NUTQIY FAOLIYATI VA UNI TASHKIL ETISHGA DOIR NAZARIY QARASHLAR TAHLILI

Jo 'rayeva Mohira Yunus qizi

QDU doktoranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada shaxs nutqiy faoliyati va uni tashkil etishga doir nazariy qarashlar tahlil qilinadi. Nutq o'zgarish-shaxs tomonidan og'zaki va yozma badiiy til me'yorlariga amal qilish masalasi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Nutq, nutq o'zgarish, muloqot, kompetensiya, to'g'ri talaffuz, ifoda.

ABSTRACT

This article analyzes theoretical views on speech activity of a person and its organization. Development of speech - the issue of adherence to the standards of oral and written artistic language by a person is studied.

Key words: Speech, speech development, communication, competence, correct pronunciation, expression.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются теоретические взгляды на речевую деятельность человека и ее организацию. Культивирование речи – изучается вопрос соблюдения человеком норм устной и письменной художественной речи.

Ключевые слова: Речь, речевое развитие, общение, компетентность, правильное произношение.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zlarining har bir chiqishlarida malakatimiz taraqqiyotining harakatlantiruvchi asosiy kuchi - bu ta'lim va tarbiya ekanligini ta'kidlagan holda, unga alohida e'tibor qaratish lozimligini takrorlaydilar. "Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun "Yangi

O‘zbekiston” va “Uchinchi Renessans” so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangramoqda, xalqimizni ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirmoqda” [1].

Har bir davlatda ta'lim tizimi o‘quvchilarda nutq o‘stirishi asosiy tarkibiy faoliyat sifatida tan olingan. O‘zbekistonda ham uzluksiz ta'limning birinchi bosqishlari – maktabgacha va boshlang‘ich ta'lim davrida o‘quvchilarning nutqni o‘stirish pedagogik jarayonning asosiy sohasi etib tanlangan. Ommaviy madaniyat va innovatsion ta'lim sohasining shakllanishi, inson kapitalini rivojlantirishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojning ortishi kishik avlodni har tomonlama kamol toptirish, intellektual jihatdan rivojlantirish, bunda nutq imkoniyatlaridan foydalanishni taqozo etmoqda[2; 85-86].

“Nutq” tushunchasiga berilgan izohlarni ko‘rib chiqsak, mavjud tilshunoslik, pedagogik, psixologik hamda metodik adabiyotlarda turlicha berilganligini ko‘rish mumkin. Xususan, “pedagogik entsiklopedik lug‘at”da nutq “insonlarning til vositasida amalga oshiriladigan muloqot (kommunikatsiya) shakli bo‘lib, u fikrni ifodalash vositasi bo‘lishi bilan birga fikrlashning asosiy mexanizmi” [3; 15-b.] deb izoh beriladi. . Psixologlar tomonidan nutq “odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish va avlodlarga berish yoki o‘zaro aloqa o‘rnatish yoki o‘z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni” [5; 192-b.], deb ta'riflangan. “O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi”da nutq deganda uning og‘zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo‘lishidagi jarayonlar, ya'ni so‘zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar)” [4; 424-425-b.], deya e'tirof etiladi. Metodik olimlar tomonidan nutq “kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gar) asosida tafakkurni ishga solish” [6; 300-b.] sifatida ham talqin etilgan. Bir so‘z bilan aytganda, nutq ijtimoiy sub'ektlarning til vositasida amalga oshiriladigan faoliyat turidir. Kishilik jamiyatini barpo qilish va rivojlantirish jarayonida nutqning ahamiyati qanchalik katta bo‘lsa, hozirgi rivojlangan, sivilizatsiyalashgan zamonda ham bu ahamiyat o‘z kuchini yo‘qotmagan. Zero har qanday rivojlanishning zahirida o‘zaro aloqani ta’minlab beruvshi til va nutq mavjuddir.

Nutqda quyidagi xususiyatlar namoyon bo‘ladi:

1) fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratiladi, tugallangan mavzuni ifodalaydi, logik va grammatik qoidalar asosida tuziladi, mustaqil, tugallangan, o‘zaro bog‘langan ma'noli qismlarga bo‘linadi (u bog‘lanishli nutq deb ataladi)

2) og‘zaki va yozma shaklda ifodalanadi;

3) og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish yagona jarayonda kechadi;

4) shunga qaramay, og‘zaki va yozma nutq orasida jiddiy tafovutlar mavjud (ular haqida ishning keyingi bobida batafsil so‘z yuritiladi);

5) nutq muloqot chog‘ida ishtirok etuvshilarning soniga ko‘ra dialogik va monologik kabi turlarga bo‘linadi;

6) dialog og‘zaki nutqning keng tarqalgan turlaridan, nutqiy muloqotning tabiiy shakllaridan biri bo‘lib, ikki yoki bir necha shaxs o‘rtasida keshadi;

7) og‘zaki nutq, tabiatiga ko‘ra, ko‘proq suhbat shaklida yuzaga keladi;

8) nutqning juda muhim shakllaridan biri sanaladigan monolog dialogga nisbatan mazmunni ifodalash ushun til vositalarini tanlash, nutqning qurilishiga ko‘ra bir qadar an'anaviylikka ega. [6; 321-b.];

Shaxs nutqiy faoliyati inson hayotining dastlabki yillaridanoq boshlanadi. Mutaxassis olimlar bola so‘z va tovushlarni ona qornida ekanligidayoq ajrata olishini ta’kidlaydilar. Ilm-fan, texnika va texnologiyaning tezkor rivojlanishi, madaniyat, san'at va adabiyotning jadal o‘sishi bolalarning aqliy-ruhiy kamolotiga jiddiy ta'sir ko‘rsatmoqda. Bu esa ta'lim-tarbiya sohasida yangi usul va metodlardan foydalanishni, xususan, o‘quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatlari va nutqini o‘stiruvshi ish turlarini keng qo‘llashni taqozo etadi.

«Ona tili va o'qish savodxonligi» darsliklarida keltirilgan matnlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq o'stirish malakalarini rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarni ilmiy-ommabor maqola mazmunini aniq anglashi, ongli va ifodali o'qiy olishi, matnda keltirilgan tushunshani anglashi, matnda izohlangan voqelikka nisbatan munosabat bildirishga tayyorlashdir. O'qituvchining tayyorgarligi darsning maqsadi, o'rganilayotgan mavzuning mazmuni, o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka, kompetentsiyalari darajasiga qarab amalga oshadi. Bolalarni asar matnini o'qishga tayyorlashda, birinchi navbatda, ularni ilmiy-ommabor maqola mavzusi, tili, g'oyaviy mazmuni va badiiy-estetik qiymati bilan tanishtirish, ilmiy-ommabop maqola mazmunidan tegishli xulosa chiqarishga e'tibor qaratiladi. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida matnlarni o'qish nutqning alohida ko'rinishidir.

Til turli birliklarining o'zaro aloqadorligi so'zlashuv nutqida yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki so'zlashuv nutqida har bir til birligi o'zining gapda joylashish o'rniga, intonatsiyasiga va urg'uning ta'siriga ko'ra turlicha vazifani bajaradi. Nutqni shakllantirish omillari ta'sirida har bir nutqning asosiy xususiyatlari shakllanadi. Ular quyidagilardan iborat: nutqning to'g'riligi, tozaligi, aniqligi, mantiqiyiligi, ta'sirchanligi, obrazlilik, tushunarlilik va maqsadga muvofiqiligi. Nutqning to'g'riligi. Bu uning bosh aloqa belgisi hisoblanadi. Nutqning to'g'riligi - so'zlovchi va tinglovchining bir-birini oson va tez tushunishlarini ta'minlovchi omil. Chunki nutq to'g'ri bo'lmasa, u aniq maqsadga muvofiq va mantiqiy ham bo'lmaydi[8]. Nutq to'g'riligini ta'minlovchi bir necha omillar mavjud. Nutqning to'g'riligi, eng avvalo, uning adabiy til me'yoriga muvofiq kelishidir. Bunda ikki xil me'yorga (amalga) qattiq rioya qilinishi lozim. Bular aktsentologik (so'z va formalarda qonunning to'g'riligi) va grammatik me'yorlardir. Aktsentologik me'yorlarga binoan ulardagi ayrim bo'g'inlarning zarb bilan aytilishi, talaffuz qilinishi. Ma'lumki, o'zbek tilida so'zlarga qo'shimchalar qo'shilishi bilan urg'u keyingi bo'g'inga ko'chiriladi. So'zlardagi urg'uning ko'chishi bilan ba'zan so'z ma'nosi ham o'zgaradi.

Nutq o'stirish – shaxs tomonidan og'zaki va yozma badiiy til me'yorlari: to'g'ri talaffuz, urg'u, grammatika, so'zlarni to'g'ri qo'llash qoidalarini o'zlashtirish orqali unda tilning badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalangan holda ravon so'zlash malakalarini rivojlantirishni ifodalovchi pedagogik jarayon [7; 17]. O'z mohiyatiga ko'ra nutq o'stirish shaxs, jumladan, o'quvchi tomonidan og'zaki va yozma badiiy til me'yorlari: to'g'ri talaffuz, urg'u, grammatika, so'zlarni to'g'ri qo'llash qoidalarini amaliy o'zlashtirish, tilning badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalanish, ravon so'zlash malakalariga ega bo'lishini ta'minlovchi metod, usul, vositalar yordamida pedagogik qo'llab-quvvatlash, to'g'ri yo'naltirish, zarur o'rinlarda kerakli choralarni ko'rish hamda jarayonga rahbarlik qilishni anglatadi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda”. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari // “Yangi O'zbekiston” gazetasi, № 165 (421), 2021-yil 17-avgust.
2. Safarova R., Musaev U., Musaev R., Yusupova F., Nurjanova R. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. – T.: Fan, 2005. – 85-86-b.
3. Pedagogicheskiy entsiklopedicheskiy slovar' / Gl. red. B.M. Bim-Bad. 3-e izdanie, stereotirnoe. – M.: Bol'shaya Rossiyskaya entsiklopediya, 2009. – 528 s.

4. O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi / 12 jildli. 6-j. – T.: “O‘ME” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 424-425-b.
5. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 192-b.
6. Qosimova K., Matshonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi / Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari ushun darslik. – T.: Noshir, 2009. – 352 b.
7. Abdullaeva F. N. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida ilmiy-ommabor maqolalarni o‘qitishning metodik imkoniyatlari Pedagogika fan. Bo‘y. Fal. Dok. (RhD) ilmiy darajasini olish ushun ...diss. - Bux. 2022.
8. A.Musayev. Nutqni shakllantirish omillari va uning asosiy xususiyatlari - T. 2021.

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

**“O‘QUVCHI-TALABA KREATIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH
KONTEKSTIDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN
FANLARARO SINXRON-ASINXRON FOYDALANISH”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLARI TO‘PLAMI

Mas’ul muxarrirlar

Maxmudov Yu.G‘., Sobirova M.R., Boymirov Sh.

Taqrizchilar

To‘raev E.Y., Xudoyqulov H.J., Isaqulova N.J.

Bosishga ruxsat etildi 26.09.2023. Qog‘oz bichimi 60x84x $\frac{1}{16}$.

Offset bosma. Shartli bosma tabog‘i 32,75. Adadi 100 nusxa

Buyurtma raqami №134

Shafolat Nur Fayz bosmaxonasida chop etilgan.

Toshkent

«Shafolat Nur Fayz», 2023 yil.